



**DAF - UNTERRICHT IM DIGITALEN ZEITALTER**



# **DaF - Unterricht im digitalen Zeitalter**

II-Internationale Digitalkonferenz  
8-9. Oktober

**Taschkent 2021**

**DAF-UNTERRICHT  
IM DIGITALEN ZEITALTER**

Referate der internationalen wissenschaftlich-praxisorientierten Online-Konferenz

Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари тўплами

Сборник материалов международной научно-практической онлайн конференции

Für den Inhalt Richtigkeit, Vollständigkeit und Aktualität der Beiträge sind die jeweiligen Autoren verantwortlich und diese widerspiegeln nicht den Standpunkt oder die Meinung der Redaktion

Anjuman to'plamiga taqdim etilgan tezislardagi ma'lumotlarning haqqoniyligi va to'g'riligi uchun mualliflar shaxsan javobgardir. Tahririyat fikri maqolalar mualliflarining qarashlari bilan mos kelmasligi mumkin.

За содержание и достоверность статей ответственность несут авторы. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей.

GI Usbekistan © LPA



асосланади: (1) мавзулар нутқ малакаларини шакллантириш учун хизмат қилиши лозим; (2) ўқитиш шароити ва имкониятларининг мавжудлиги ҳисобга олинади; (3) мавзуларни танлашда ўзлаштиришнинг рецептив ва (ре)продуктив хусусиятларига эътибор қаратилади. Бинобарин, оғзаки нутқ ва ўқиш учун алоҳида мавзулар танланади.

Чет тилда нутқ фаолиятининг репродуктив (гапириш, ёзув) ва рецептив (тинглаб тушуниш ва ўқиш) турларини эгаллаш бир-биридан фарқ қилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
2. Мустафаева Х.Т. Инглиз тили грамматикасини ижтимоий-гуманитар факультетлар талабаларига ўргатишнинг лингвометодик хусусиятлари: Пед. фан. ном. ... дис. – Самарқанд, 2003. – 139 б.
3. Концепция непрерывного образования по иностранному языку// газета "Учитель Узбекистана". – 1993. 28 июля–3 августа. – С.2–3.
4. Эркаев Э.Т. Бўлажак чет тил муаллими таълимида қўлланилган таржима машқларининг лингводидактик таснифи: Пед. фан. ном. ... дис. автореферати. – Тошкент, 2008. – 23 б.
5. Шарапова С.И. Методика обучения студентов неязыкового вуза чтению профессиональных текстов с целью порождения различных форм вторичных высказываний (немецкий язык). Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ярославль, 2010. – 26 с.

#### NEMIS TILINI "PADLET" VIRTUAL DOSKASI ORQALI O'RGATISHNING AFZALLIGI

**Hayotova Dilafro'z Zoyirovna**

Buxoro Davlat Universiteti Nemis va fransuz tillari kafedrasini nemis tili fani o'qituvchisi

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilishining asosiy yo'nalishlaridan biri - bu uning axborotlashtirilishi hisoblanadi. Zamonaviy dasturlar bir vaqtning o'zida grafik, matnli va audiovizual ma'lumotlarni, turli tuzilmalarga birlashtirish imkoniyatiga egadir.

Padlet (<https://padlet.com>) - bu taqdimotlar va interaktiv topshiriqlar orqali nemis tilini yoki xoxlagan xorijiy tilni o'rganish uchun qulay bo'lgan dastur, bu interaktiv doska yoki devor deb aytiladi. O'qituvchi yoki talaba bu doskada mustaqil ravishda turli xil mashqlarni bajarishi, devomi to'ldirish orqali asosiy mavzuni yoritishi mumkin. O'qituvchi yoki talaba doskada joylashtirilgan turli xil audio va video fayllarni, rasmlarni, hujjatlarni joylashtirishi mumkin. B doskada faol bo'lgan va yuklangan materialni o'z ichiga olgan bir nechta derazachalardan iborat. "Padlet" til o'rganayotganlarga xabarlar taxtasi, munozara, mulohaza, jumboqlar, fikr - mulohazalarni to'plash imkonini beradi [2, 5].

Padlet veb -vositasi bilan ishlash til o'rganayotganlarga quyidagilarni imkoniyatlarni yaratib beradi:

- darsning barcha bosqichlarida ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- tilni o'rganish uchun motivatsiyani kuchaytirish;
- ta'lim va tarbiya sifatini yaxshilash
- talabalarning axborot ulashish madaniyatini oshirish;
- talabalarning zamonaviy axborot texnologiyalari bilan hamnafas bo'lishini;
- kompyuter imkoniyatlari bilan tanishish

"Padlet" veb -vositasi yordamida darsning sifati sezilarli darajada o'zgarmaydi. Bu dastur bilan ishlashda talabada motivatsiya bosqichi vaqt o'tishi bilan ortadi, chunki u kognitiv yukni o'z ichiga oladi. Bu shart mashg'ulotlarning muvaffaqiyati uchun muhim, chunki o'quvchilarning ijodiy faolligi oshiradi.

Yana bu dasturning foydali tarafi shundaki, vazifalarni turli guruhlariga bo'lib, yakka tartibda, guruh bo'lib, sherikchilik asosida amalga oshirishlari mumkin [3].

Darsning tashkiliy bosqichi o'quvchilarni topshiriqlarni tayyorlash uchun dars mavzusi va vazifalarini taqdim etishni o'z ichiga oladi. "Padlet" dasturida ijobiy natijalarga erishish uchun o'qituvchi va o'quvchilarning ijobiy munosabati muhim ahamiyatga ega. Dars mavzusini e'lon qilish uchun, masalan, mavzuning asosiy nuqtalarini aks ettiruvchi qisqa videodan foydalanishingiz mumkin. Padletda doska yaratiladi, so'ngra maydonga uning internet manzilini qo'yish orqali kerakli video ilova qilinadi.



Uy vazifalarini ko'rib chiqish bosqichi odatda qiyin nuqtalarni tushuntirishni, shuningdek, ilgari o'rganilgan material bo'yicha test savollari va viktorinalarni o'z ichiga oladi. Darsning ushbu bosqichida "Padlet" veb -vositasi turli vazifalarni o'z ichiga olishi mumkin, ularning bajarilishi o'qituvchiga o'quvchilarning darsga tayyorligini ko'rsatadi. O'qituvchi topshiriqlarni tuzish uchun qulay bo'lgan [www.learningapps.org](http://www.learningapps.org) resursidan foydalanishi mumkin, u ham tahlil qilinadigan veb -resursga osongina qo'shiladi.

Bilim va harakat usullarini aktualashtirish bosqichi o'quvchilarga yangi mavzuni o'rganishning muhimligini va o'tilgan materialni qisqacha umumlashtirishga imkon beradigan savol va topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Padlet veb -vositasidan foydalanib, o'qituvchi bu bosqichda o'rganilgan lug'atni, qisqa video yoki audio yozuvlarni takrorlashni o'z ichiga olishi mumkin. Yangi tushuncha va harakat usullarini shakllantirish darsning navbatdagi bosqichidir, uning maqsadi yangi o'quv materialining namoyishi deb hisoblash mumkin. Darsning bu bosqichi yangi materialning xususiyatlarini ko'rsatuvchi asosiy tushunchalar, diagrammalar, jadvallar, rasmlar, animatsiya, videokliplarni o'z ichiga oladi.

Darsning keyingi bosqichi - chet tilini bilish ko'nikmalarini shakllantirish. U aqliy faollikni va materialni ijodiy tushunishni talab qiladigan savollar va topshiriqlarni, agar qiyinchiliklar yuzaga kelsa, to'g'ri echim ko'rsatilishini o'z ichiga oladi.

Oldingi bosqichda bo'lgani kabi, "Padlet" devoriga turli topshiriqlar, video, audio yozuvlar, o'qish uchun matnlari, grammatik sxemalar, og'zaki javob uchun taxminiy rejalar va hk. Chet tili ko'nikmalarining shakllanishini nazorat qilish uchun siz testlardan, grammatikani, so'z boyligini, o'qish va tinglashni, o'quvchi javoblarini daftarga yozish uchun turli topshiriqlardan foydalanishingiz mumkin.

"Padlet" veb – dasturini darsning oxirgi bosqichida ishlatilishi mumkin, bunda o'rganilgan materialni yangi kommunikativ vaziyatga o'tkazish uchun sharoit yaratiladi. O'qituvchi har xil darajadagi vazifalarni o'z ichiga olgan, o'rganilgan materialni qo'llashda nostandart vaziyatlardan foydalanishi mumkin.

"Padlet" interaktiv devordagi vazifalarni ko'rsatilishi o'qituvchi tomonidan bitta kompyuterda amalga oshiriladi. Talabalar ushbu veb -vositalar bilan o'zlarining zamonaviy gadjetlari: planshetlar, smartfonlar yordamida ishlashlari mumkin.

O'qituvchi, shuningdek, ushbu manbadan axborot -ta'lim vositasi sifatida foydalanishi mumkin, chunki u o'quv jarayonining tashkilotchisi, o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qiladi va ularga zarur yordam va ko'mak beradi. "Padlet" veb -vositasi yordamida taqdim etilgan materialni darsning barcha bosqichlarida ishlatish mumkin.

Padlet interfaol doskasidan foydalanishning afzalliklari shundaki, o'quvchilarni haqiqiy muloqot muhiti o'ziga jalb qiladi, bunda talabalar o'z fikrlarini ifoda etishga intilishadi, topshiriqlarni bajonidil bajarishadi, o'rganilayotgan materialga qiziqish bildirishadi va fanga nisbatan qo'rquv bo'lmaydi. Talabalar mavzu bo'yicha o'quv, ma'lumotnoma va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashni o'rganadilar. O'quvchilarda yaxshi natijaga erishish, qo'shimcha vazifalarni bajarishga tayyorlik va xohish paydo bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakli, «Padlet» virtual doskasi shubhasiz, masofaviy o'qitish uchun foydalanishning eng oson va interaktiv xizmatlaridan biridir va bu o'qituvchi hamda talabalarning virtual olamda faol samarali ishlashlari uchun qulay vositadir.

#### FOYDALANILGAN FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дьячкова Н.А. Использование онлайн-доски на уроках и внеклассных мероприятиях для повышения мотивации и познавательного интереса к изучению биологии [Электронный ресурс]. [http://vio.uchim.info/Vio\\_138/cd\\_site/articles/art\\_2\\_3.htm](http://vio.uchim.info/Vio_138/cd_site/articles/art_2_3.htm)
2. Евжикова О. Как использовать онлайн-доску Padlet в классе [Электронный ресурс]. – <http://teachtech.ru/instrumenty-veb-2-0/kak-ispolzovat-onlajn-dosku-padlet-v-klasse.html>
3. Интерактивные технологии в образовательном процессе Университета ИТМО: учеб. -метод. пособие / А.А.Шехонин, В.А.Тарлыков, О.В.Харитоновна и др. – СПб.: Университет ИТМО, 2017. – 100 б.
4. Серомолот И.Н. Методика работы с презентацией [Электронный ресурс]. – <https://infourok.ru/metodika-raboti-s-prezentatsiy-1862410>
5. Симунова О.Г. Использование ресурса «Padlet» для организации и активизации учебной деятельности обучающихся. <http://ped.yartel.ru/gruppy/viewdiscussion/607-ispolzovanie-resursa-padlet-dlya-organizatsii-i-aktivizatsii-uchebnoj-deyatelnosti-obuchayushchikhsya>
6. Худякова О.Н. Возможности использования сервиса «Padlet»